



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 24.08.2022 г. № 131895

между ДУК "O'ZSHAHARSOZLIK LIT" и Инжиниринговая Компания СЕЗ СМ РК на общую сумму 11979000,00

Глава 118  
Казначейский лицевой счёт 100010860354017049804|18003

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4312110			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь	11 979 000,00			11 979 000,00
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>11 979 000,00</b>			<b>11 979 000,00</b>

Всего 11979000,00 сум

Одиннадцать миллионов девятьсот семьдесят девять тысяч сум  
00 тийин  
сума прописью

Из вышеуказанной суммы \_\_\_\_\_ сум или \_\_\_\_\_ от общей суммы договора подлежат предоплате в \_\_\_\_\_ мес. 20\_\_ г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца.

(Данное поле заполняется сотрудниками бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления платежей в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, а также в случае предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



(подпись)

Исмаилов П

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Нажимов Б

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения \_\_\_\_\_

(подпись)

Получил работник заказчика \_\_\_\_\_

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QURILISH VAZIRLIGI



МИНИСТЕРСТВО СТРОИТЕЛЬСТВА  
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН

"O'ZBEKISTON SHAHARSOZLIK  
LOYIHALASH VA ILMIY  
TADQIQOT INSTITUTI"  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УНИТАРНОЕ  
ПРЕДПРИЯТИЕ "УЗБЕКИСКИЙ ПРОЕКТНЫЙ И  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ  
ИНСТИТУТ ПО ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВУ"

## «O'ZSHARSOZLIK LITI» DUK



«Nukus shahar "Bag'shiliq" MFY dagi 96 ta xonadonga mo'ljallangan  
3 ta 7 qavatli uy-joylarni avtomobil yo'lini qurish»

**131895 – SON SHARTNOMA**

ISO 9001 : 2015



Сертифицирована Система  
Менеджмента Качества

**Buyurtmachi  
nuxyasi**

Toshkent – 2022 y.



## Loyiha-smeta hujjatini ishlab chiqish uchun

### 131895-son pudrat SHARTNOMASI

2022 y. «24» oy

Toshkent sh.

«O'zshaharsozlik LITI» DUK Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali, keyingi o'rinlarda «Loyihalovchi» deb ataluvchi va 2021-yil 10-dekabrda 1-01/1658-son Ishonchnoma asosida faoliyat ko'rsatuvchi Filial direktori B. Baltaniyazov, bir tomondan va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi huzuridagi "Yagona Buyurtmachi Xizmati" IK, bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiladi, Nizom asosida faoliyat yurituvchi Direktor M. Utemuratov nomidan, ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur Shartnomani tuzdilar:

#### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur Shartnomaga asosan «Loyihalovchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'iga ko'ra «Nukus shahar "Bag'shiliq" MFY dagi 96 ta xonadonga mo'ljallangan 3 ta 7 qavatli uy-joylarni avtomobil yo'lini qurish» ob'yekti bo'yicha loyiha-smeta hujjatini (bundan buyon matnda «Mahsulot» deb yuritiladi) ishlab chiqish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa, bunda, «Loyihalovchi»ga Loyihalash topshirig'ini va dastlabki kerakli ma'lumotlarni taqdim etish, bajarilgan ishlarni qabul qilish va ish haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2. «Loyihalovchi» qayd etilgan ishlarni mazkur Shartnoma hujjatlariga va amaldagi me'yoriy hujjatlarga, shu jumladan SHNK 1.03.01-16 talablariga muvofiq amalga oshiradi va yakunlaydi.

1.3. Ishlarning asosiy bosqichlarining (bundan buyon matnda «Ishlar» deb yuritiladi) tarkibi, qiymati, bajarilish muddatlari mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan quyidagi ilovalar bilan belgilanadi:

- loyihalash topshirig'i (1-son ilova);
- shartnoma narxi to'g'risida bayonnoma (2-son ilova);
- ishlarning kalendar rejasi (3-son ilova);
- shartnoma narxining asoslanishi (4-son ilova);
- loyiha ishlari smetasi (5-son ilova).

#### 2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. «Buyurtmachi» quyidagi majburiyatlarga ega:

2.1.1. «Loyihalovchi»ga «Mahsulot»ni ishlab chiqarish uchun kerakli SHNK 1.03.01-16ning 1-son ilovasi ro'yxatida ko'rsatilgan Loyihalash topshirig'ini, shuningdek, boshqa dastlabki ma'lumotlarni berish, aynan esa:

- 1) qurilish uchun yer uchastkasini (trassani) tanlash dalolatnomasi;
- 2) belgilangan tartibda tuzilgan arxitektura-rejalash topshirig'i;
- 3) kartografik (topografik) materiallar: mavjud muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalari, elektr ta'minot manbalari, aloqa, gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib tashlash joylari bilan joylanish rejasi; bosh reja sxemasi; muhandislik-geologiya, muhandislik-gidrometeorologiya qidiruv ishlari materiallari;

4) loyihalashtirilayotgan ob'yektni ta'minot manbalariga, muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalariga ulash yuzasidan texnik shartlar (texnik shartlar odatda Taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra belgilangan muddat davomida, ob'yektni loyihalash va qurish davrida o'zgartirilmasligi kerak);



5) yer mulkdorlari, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijaraga oluvchilarning yer uchastkasini olib qo'yish bilan bog'liq zararlari hisob-kitobi;

6) yakka tartibda ishlab chiqariladigan uskunalar bo'yicha dastlabki ma'lumotlar, shu jumladan yirik texnologik uskunaning texnik loyihasi materiallari, shuningdek import uskunalar to'g'risidagi ma'lumotlar;

7) inventarizatsiya materiallari, baholash dalolatnomalari va mahalliy hukumat organlarining bino va inshootlarni buzish hamda buziladigan bino va inshootlar uchun kompensatsiya xususiyati to'g'risidagi qarorlari;

8) uchastkadagi mavjud binolar, inshootlar, yerosti va yerusti tarmoqlari va kommunikatsiyalari qurilishining o'lchov chizmalari;

9) qurilishni tashkillashtirish loyihagini tuzish uchun dastlabki ma'lumotlar;

10) «Atrof-muhitga ta'sir etish to'g'risida bayonot»ning tasdiqlangan loyihasi;

2.1.2. «**Loyihalovchi**»ga mazkur Shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda ishlar qiymatini to'lash;

2.1.3. «**Loyihalovchi**»dan olingan «Mahsulot»dan faqat mazkur Shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, «Mahsulot»ni uchinchi shaxslarga bermaslik va «Loyihalovchi»ning roziligisiz undagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

2.1.4. Zarur hollarda, «**Loyihalovchi**»ni jalb etgan holda, tayyor «Mahsulot»ni tegishli davlat organlari va tashkilotlari bilan muvofiqlashtirish;

2.1.5. «**Loyihalovchi**»ga unga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ishlarni bajarish uchun dastlabki ma'lumotlar o'zgartirilishi tufayli yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlar o'rini to'ldirish;

2.1.6. Ishlab chiqilgan «Mahsulot»ning kamchiliklari tufayli uchinchi shaxs tomonidan «**Buyurtmachi**»ga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo bo'yicha ishda ishtirok qilishga «**Loyihalovchi**»ni jalb etish.

2.2. «**Loyihalovchi**» quyidagi majburiyatlarga ega:

2.2.1. Loyihalash topshirig'i va ishlarni bajarish uchun dastlabki materiallar talablariga rioya etish, ishlarni ularga muvofiq bajarish;

2.2.2. «**Buyurtmachi**» bilan birga, zarur hollarda, tayyor «Mahsulot»ni tegishli davlat organlari va tashkilotlari bilan muvofiqlashtirishda ishtirok qilish;

2.2.3. Mazkur Shartnoma bilan belgilangan muddatlarda «**Buyurtmachi**»ga tayyor «Mahsulot»ni topshirish;

2.2.4. «**Buyurtmachi**»ning roziligisiz tayyor «Mahsulot»ni uchinchi shaxslarga bermaslik.

2.3. «**Buyurtmachi**» quyidagilarga huquqlarga ega:

2.3.1. «Mahsulot»da Loyihalash topshirig'i bilan bog'liq bo'lmagan kamchiliklar aniqlangan holatda, «Mahsulot»ning bepul qayta ishlanishini talab qilish.

2.4. «**Loyihalovchi**» quyidagilarga haqli:

2.4.1. Loyihalash topshirig'i bo'yicha ishlarni bajarish uchun dastlabki materiallardagi boshqa talablardan faqat «**Buyurtmachi**»ning roziligi bilan chetga chiqish;

2.4.2. Oldindan to'lov tushishi muddatlari va miqdoriga, dastlabki materiallar o'z vaqtida taqdim qilinmasligiga, shuningdek oldingi ish bosqichlari uchun to'lovlarga qarab ishlarni bajarish jadvaliga tuzatish kiritish.

### 3. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1. Quyidagi shartlarning barchasi bajarilgan sana ishlar boshlanishi hisoblanadi:

3.1.1. «**Loyihalovchi**»ning hisobvarag'iga avans tushishi;

3.1.2. Loyihalash topshirig'i va mazkur Shartnomaga tegishli boshqa hujjatlarning belgilangan tartibda tasdiqlanishi va muvofiqlashtirilishi;



3.1.3. Tasdiqlangan Loyihalash topshirig'i va me'yoriy hujjatlarga muvofiq loyihalash uchun kerakli barcha dastlabki ma'lumotlarning «Buyurtmachi» tomonidan taqdim qilinishi.

3.1.4. Ishlarni bajarish kalendar muddatlari yuqorida qayd etilgan shartlar bajarilishi kechiktirilgan vaqtga suriladi.

3.2. Ishlar (ishlar bosqichi) yakunlangandan so'ng, «Loyihalovchi» «Buyurtmachi»ga «Mahsulot» («Mahsulot»ning bir qismi)ni yukxatiga asosan topshiradi hamda Loyihalash topshirig'i va mazkur Shartnoma shartlari bilan nazarda tutilgan qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim qiladi.

3.3. «Buyurtmachi» «Mahsulot»ni olgach, 10 kun davomida quyidagilarni bajarishi shart:

3.3.1. «Mahsulot»ni qabul qilishni amalga oshirishi va «Loyihalovchi»ga imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasini yuborishi;

3.3.2. Yoxud «Mahsulot»ni qabul qilishni rad etishi va «Loyihalovchi»ga asoslangan rad javobini yuborishi.

3.4. Asoslangan rad javobi yuborilgan holatda, kamchiliklarni to'g'rilash ro'yxati va bajarilish muddatlari ko'rsatilgan ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.5. «Buyurtmachi» tomonidan mazkur Shartnomaning 3.3. bandida belgilangan muddatda asoslangan rad javobisiz imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi mavjud bo'lmagan holatda, «Mahsulot» qabul qilingan hisoblanib to'lov amalga oshirilishi kerak.

#### 4. ISHLAR QIYMATI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

4.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar qiymatining kelishilgan narxi to'g'risidagi bayonnoma (2-son ilova) bilan belgilanadi va **11 979 000 (o'n bir million to'qqiz yuz yetmish to'qqiz ming) so'mni tashkil etadi, shu jumladan 15% - QQS - 1 562 478 so'm.**

4.2. Shartnoma qiymati yakuniy hisoblanadi va kelajakda o'zgarishi mumkin emas, «Buyurtmachi» tomonidan belgilangan tartibda ish hajmini o'zgartirish hollari bundan mustasno.

4.3. «Buyurtmachi» «Loyihalovchi»ning hisob raqamiga quyidagi tartibda o'tkazmani amalga oshirish orqali mazkur Shartnoma bo'yicha haq to'laydi:

- mazkur Shartnoma imzolangan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran 5 kun mobaynida amalga oshiriladigan ishlarning 15% miqdorida oldindan to'lov;

- kelgusida, bosqichma-bosqich bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangan paytdan e'tiboran 10 kun mobaynida (bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolanmagan va asoslangan rad javobi mavjud bo'lmagan holatda - «Mahsulot» («Mahsulot»ning bir qismi) yukxatiga asosan topshirilgan paytdan e'tiboran 15 kun mobaynida).

4.4. «Buyurtmachi» tomonidan belgilangan tartibda ishlarga oldindan haq to'lash bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan holatda, «Loyihalovchi» Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

4.5. Shartnoma bilan belgilangan muddatda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanmagan va asoslangan rad javobi taqdim qilinmagan holatda, «Loyihalovchi» iqtisodiy sudga bir tomonlama dalolatnomani to'lov uchun taqdim etishga haqlidir.

#### 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun Taraflar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

*Handwritten signature*



**5.2. «Loyihalovchi» «Mahsulot» kamchiliklari, shu jumladan «Mahsulot» asosida barpo etilgan ob'jekt qurilishi va undan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun faqat quyidagi holatlarda javobgar bo'ladi:**

- agar ushbu kamchiliklar «Mahsulot»ga mustaqil ravishda («Buyurtmachi» xabardor qilinmagan holda) o'zgartishlar kiritilishi bilan bog'liq bo'lsa: Ushbu holatlarda, «Loyihalovchi» har ikki taraf tomonidan belgilangan muddatlarda «Mahsulot»ning bepul qayta ishlanishini amalga oshirishi shart.

**5.3. «Loyihalovchi», mazkur Shartnomada alohida belgilangan holatlardan tashqari, kamchiliklar aniqlangan muddatdan qat'i nazar, «Mahsulot»ning kamchiliklari uchun hech qanday javobgar bo'lmaydi, agar ushbu kamchiliklar:**

- «Loyihalovchi» bilan kelishuvsiz ob'jekt qurilishi va undan foydalanishda yoki loyihalash oxirida amalga oshirilgan «Mahsulot» talablaridan chetga chiqish bilan bog'liq bo'lsa;

- «Buyurtmachi» tomonidan Loyihalash topshirig'ida, shuningdek loyihalash tugaganidan so'ng kelgusi o'zgartirishlarda taqdim qilingan dastlabki ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa.

**5.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha haq to'lanmaganlik (o'z vaqtida to'lanmaganlik) uchun «Buyurtmachi» «Loyihalovchi»ga to'lov muddati kechiktirilgan har bir kun uchun o'z vaqtida to'lanmagan summaning 0,4% miqdorida, biroq to'lanmagan to'lov summasining 50% dan yuqori bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.**

**5.5. Ishlar o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun «Loyihalovchi» «Buyurtmachi»ga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5% miqdorida, biroq o'z vaqtida bajarilmagan ishlar qiymatining 50% dan yuqori bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.**

**5.6. Mazkur Shartnoma muddatidan oldin bekor qilingan holatda, tashabbuschi Taraf 10 kun ichida boshqa Tarafga shartnomani bekor qilish istagi to'g'risida bildirish xati yuborishi kerak, bunda Taraflar Shartnomaga asosan hujjatlar bilan tasdiqlangan va amalda bajarilgan ishlar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradilar.**

## **6. BOSHQA SHARTLAR**

**6.1. Mazkur Shartnoma har ikki Taraf tomonidan imzolangan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi hamda 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.**

**6.2. Mazkur Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega, bir nusxasi «Loyihalovchi», ikki nusxasi «Buyurtmachi» uchun, jami uch nusxada tuzildi.**

**6.3. Mazkur Shartnomaga barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat Taraflar tomonidan o'zaro tasdiqlangan holatda yuridik kuchga ega bo'ladi va qo'shimcha bitim yoki kelishmovchiliklar bayonnomasi shaklida amalga oshiriladi.**

**6.4. Mazkur Shartnoma istalgan Taraf tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin.**

**6.5. Mazkur Shartnoma bilan hal qilinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.**

**6.6. Taraflar o'rtasidagi barcha nizolar o'zaro kelishuvga erishilmasa O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.**

**6.7. Fors-major vaziyatlar yuzaga kelgan holatda, Taraflar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladilar.**

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH QOIDALARI**

**7.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.**



7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

7.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga vada qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

7.4. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

## 8. ILOVALAR

- 8.1. 1-son ilova - Loyihalash topshirig'i;
- 8.2. 2-son ilova - Shartnoma narxi to'g'risidagi bayonnoma;
- 8.3. 3-son ilova - Ishlarning kalendar rejasi;
- 8.4. 4-son ilova - Shartnoma narxining asoslanishi;
- 8.5. 5-son ilova - Loyiha ishlari smetasi.

## 9. TARAFLARNING REKVIZITLARI

«Loyihalovchi»	«Buyurtmachi»
«O'zshaharsozlik LITI» DUK	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi huzuridagi "Yagona Buyurtmachi Xizmati" IK
100011 Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 18 tel. 241-44-64, faks: 241-25-73 h/r 2021 0000 4001 5233 5001	2-Hylyke X. Shylykova SA 224-12-42 224-14-38 UHN. 20480/205 OK2D: 64200
XATB "Infinbank" Amaliyot boshqarmasi MFO 01 041 STIR 200 935 587 OKED 71110	Kajmaraidova Doc. Yildonustov H/1.100010860354014048804118003 Uchramoniyev Davlat T. Tokulov E UHN. 20112919 1190100014
e-mail: <a href="mailto:info@shaharsozlik.uz">info@shaharsozlik.uz</a>	
B. Baltaniyazov 	M. Utemuratov 

Bosh yuriskonsult  Z.A. Gulyamova

«УТВЕРЖДАЮ»

Инжиниринговая компания Службы  
Единого Заказчика Совета Министров  
Республики Каракалпакстан  
М. Утемуратов



2022- год

### ПРОТОКОЛ № 132

Заседание конкурсной комиссии по выбору проектной организации для разработки  
рабочего проекта по объекту «Нукус шаҳар "Бағшилиқ" МФЙдаги 96та хонадонга  
мулжалланган 3 та 7 қаватли уй-жойларни автомобиль йуллари куриш.»

2022-год "24" 08

город Нукус

#### Участники:

##### Председатель комиссии:

П.Исмаилов

-Первый заместитель директора  
«Инжиниринговой компании» СЕЗ СМ  
РК

##### Члены комиссии:

Г.Утарова

-Начальник отдела, хозяйственно-  
договорных отношений

О.Нурымбетов

-Начальник отдела управление  
проектами и технического  
сопровождение строительства

Ш.Абдреймов.

-Начальник Проектно-изыскательского  
отдела

К.Сапаров

-Начальник отдела маркетинга ИК СЕЗ  
СМ РК

##### Секретарь комиссии:

О.Фокина

- специалист отдела ПИР

(К.Сапаров-отсутствует по  
уважительной причине).

### ПОВЕСТКА ДНЯ

Начальник отдела ПИР Инжиниринговой компании Совета Министров Республики Каракалпакстан Р. Ибрагимов, все члены конкурсной комиссии присутствовали, кворум соблюден, все необходимые условия для проведения тендера были соблюдены.

Секретарю конкурсной комиссии предоставить конкурсной комиссии следующую информацию. Было отмечено, о том что, в соответствии с Законом Республики Узбекистан от 22 апреля 2022 года №ЗРУ-684 «О государственных закупках» на специальном информационном портале ([Etender.uzex.uz.](http://Etender.uzex.uz)) по статье 58 было размещено объявление о проведении тендера по Протоколу за № 131895 от 19 августа 2022 года в течении 2-х рабочих дней от участников отбора не поступило возражений по результатам проведения отбора.

Принимая во внимание требования Положения Республики Узбекистан «О проведении тендера» и указанную выше информацию, Конкурсная комиссия



**РЕШИЛА :**

1. Для проведения тендера по качественной подготовке на разработку проектно-сметной документации по объекту: «Нукус шаҳар "Бағшилик" МФЙдаги 96та хонадонга мулжалланган 3 та 7 қаватли уй-жойларни автомобиль йуллари қуриш» в проведенном тендере были найдены лучшие условия. ГУП O`ZSHAHARSOZLIK LIT» сумму 11979000 сум для заключения договора (контракта) на разработку данного объекта проектной документации.

2. Определить альтернативном исполнителем данного объекта ООО ARCH FUNCTION» на разработку данного объекта проектной документации.

3. В соответствии закона срок рассмотрения и оценки предложений участников отбора не может превышать десяти рабочих дней с момента окончания подачи предложений.

4. Начальник отдела ПИР Абдреймов Ш. данный Протокол в день его оформления размещает государственным заказчиком для обсуждения на три рабочих дня в электронной системе государственных закупок.

5. Фокина О.К. секретарю конкурсной комиссии обеспечить доступ к порталу участникам необходимых для данного конкурса, в установленном порядке.

Прдседатель комиссии:



П.Исмаилов

Члены комиссии



Г.Утарова



О.Нурымбетов



Ш. Абдреймов

К.Сапаров

Секретарь



О.Фокина